

“MENING O’G’RIGINA BOLAM” HIKOYASI MARKAZIDAGI G’OYALAR**Azimaxon Jo’raqulova***Toshkent davlat yuridik universiteti**Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi*azimajuraqulova.111@icloud.com**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 12.03.2026**Revised: 13.03.2026**Accepted: 14.03.2026***KALIT SO’ZLAR:***hikoya qahramonlari,
Roqiyabibi, insoniy
fazilatlar, suhbatlar,
yetim bolalar, urush
yillari, shukronalik,
o’g’ri.*

Ushbu maqolada o’zbek xalq yozuvchisi va shoiri G’afur G’ulom qalamiga mansub bo’lgan “Mening o’g’rigina bolam” nomli hikoya markazidagi asosiy g’oyalar mazmuni keng va to’liq yoritilgan. Hamda, mazkur hikoya o’sha davr jamiyatining ahvolini qanchalik o’quvchiga yetkazib berishi to’g’risida fikr yuritilgan. Shu bilan birgalikda, hikoya qahramonlarining o’ziga xos fazilatlar va xarakterlari chuqur tahlil qilingan. Maqolada sovet davlatlari kirgan urush front ortidagi shaxslarni qanchalik mushkul ahvolga solganligi, yetim bolalarning ayanchli taqdirlari, shunga qaramay ham o’zbek xalqida saqlanib qolgan oliyjanob fazilatlar tasvirlangan. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, adibning mazkur hikoyasi nafaqat urush yillaridagi insonlar taqdirini, balki mustamlakachilik siyosatining undagi ro’lini ham yaqqol ochib berishga xizmat qiladi.

Yer yuzidagi har bir xalq badiiy adabiyotida, hech bo’lmaganda bir dona bo’lsa ham hajv va yumor orqali tanqid qilishni o’z quroliga aylantirgan yozuvchi bor. G’afur G’ulom ham aslida o’zbekning xuddi shunday jonkuyarlaridan biri edi. Adibning asarlarini o’qish davomida o’quvchi ongida g’oyatda noodatiy bir holat ro’y beradi. Bu esa uzoq vaqt asar haqida fikr yuritishga va uning asl mohiyatini anglashga undaydi. Sababi shundaki, G’afur

G'ulom o'z asarlarida kulgili holatlar ortida jamiyat a'zolarining ayanchli taqdiri va aslida iztirobli bo'lgan his-tuyg'ularini mohirona tasvirlab beradi. Har bir satirik jumla qalam bilan emas, balki o'sha qahramonning mungli qarashlari-yu ko'zyoshlari bilan bitilgan go'yo. Biroq, adib o'zining "Mening o'g'rigina bolam" nomli asariga o'ziga xos va takrorlanmas bir uslubda yondashgani kishilar tomonidan ko'p bora ta'kidlab o'tilgan.

Tinchlik... Eshitganda shunchaki yetti harfdan iborat bir tovushdek tuyuladigan va hozirgi kunda qadri unchalik ham yuqori bo'lmagan oddiy bir jumla. Yoshi ulug' bobobuvilarimiz to'kin dasturxon atrofida duo qilishar ekan, "Tinchligimiz abadiy bo'lsin", "Osmonimiz musaffo bo'lsin", "Tinch diyorimizga ko'z tegmasin" deya niyat qilishlarini har bir yosh eshitgani aniq. Duolarga singib ketgan bu so'zlar qadrini qonli urush davrini ko'rgan yoki u tufayli yaqinlaridan judo bo'lgan insonlar hammadan-da ko'proq va yaxshiroq bilishadi. Shu sababli ham, yoshi katta insonlar yurtimiz tinchligini erta-yu kech parvadigordan so'rab, iltijo qilishlari hech birimizga sir emas. G'afur G'ulom ham, yoshligi yetimlikning qiyin kunlarida o'tgan, urush tufayli jigargo'shasini tuproqqa qo'ygan, va dilidagi bu bitmas qora dog'lar tasvirini oq qog'ozga tushirgan adib edi. Adibning ayniqsa "Mening o'g'rigina bolam" nomli hikoyasi bu achchiq qismat kunlari haqida yanayam batafsilroq so'zlaydi. 1965-yilda yozilgan bu asar bir qarashda kulgili tuyulsa-da, ammo o'z qarida o'sha paytdagi jamiyat a'zolarining ahvoli qanchalik nochor va achinarli bo'lganini yashiradi. Shoir bu hikoyada o'zining yetimlikda o'tgan yoshlik kunlarining birini tasvirlagan. Umumiy mazmun haqida gap borar ekan, asar markazida shunchaki o'g'ri va kampir suhbatlari emas, sovuq urush xalqni ne ko'yga solib qo'ygani tanqid ostiga olinadi. O'quvchi asarni mutolaa qilishni boshlaganda, eng avvalo e'tibori hikoya boshidagi yozuvchiningning "O'ratepaning kir, eskirgan sholchasi ustida to'rt yetim va katta buvim uxlari edik." degan so'zlariga tushadi. O'sha davr insonlari qanchalik qiyinchilik ko'rganini bilish uchun birgina shu jumla kifoya emasmikan?! Albatta ha, chunki hikoya aynan shu dolzarb mavzuni asosiy nishon qilib olgan. Bundan tashqari, suhbat davomida yetimlarning uyida o'g'ri o'g'irlashi uchun hechvaqo yo'qligini ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Adib bu tasvir orqali urush insonlari tinkasiga qo'shib, ularning ro'zg'orini ham quritganini nazarda tutadi. Ko'chaga chiqqanda har burchakda ota-onasidan erta ayrilgan yetimlar non so'rab elanishini, boylarning farzandlari esa hashamatdan bahra olib yashayotganini qahramon tilidan eshitgan har bir inson ijtimoiy tenglik u davr uchun butunlay begona tushuncha bo'lganini anglashi aniq. Shu bilan birgalikda, hikoya davomida o'zbek xalqi mentalitetiga xos bo'lgan bir qator oliyjanob hislatlar ham hajv ortidan ochib beriladi. Jumladan, hatto o'z uyini tunashga kelgan o'g'rini ham mehmon qilmoqchi bo'lgan

Roqiyabibi obrazi xalqimiz qanchalar bag'rikeng, kechirimli va mehmondo'st ekanligini ko'rsatadi. Urush tufayli nomaqbul ishni qilishga majbur bo'lgan o'g'ri kun yorishmay turib ketishni va kampir uni tanib qolmasligini xohlaydi. Sababi esa u o'zbekimning uzoq yillardan beri saqlanib qolgan andisha va xayo nomli ulug' xislatlarini bulg'ashni istamaydi.

Hikoyada asosan uchta qahramon hayoti va dunyoqarashi ochib beriladi. Eng avvalo, qizidan qolgan to'rt yetimni boqaman deb o'zini goh o'qqa, goh cho'qqa uradigan Roqiyabibi obrazi, har bir o'quvchi e'tiborini tortishi tabiiy hol. Kunduzi ham, tuni ham yetimlar taqdirini o'ylash bilan band bu noskash kampir hajvada rosa ustasifarang bo'ladi. O'g'ri tom ustida yurar ekan, aksa urib yuboradi. Buni eshitgan Roqiyabibi esa o'g'rilik kasbi nozik ekanligini, avval tumovni davolab keyin ishga chiqish kerakligini o'griga qarata aytadi. Aynan shu tasvir buvijonning qanchalik ziyrak va hajvga o'chligini yaqqol ko'rsatishi mumkin. Asardagi keyingi qahramon bu - o'g'ri. Yozuvchi bu obraz shaxsini sir tutadi, vaholanki, hikoya so'ngida uni kim ekanini bilganligini tan olsa ham. O'g'ri qari onasi, ikki farzandi va xotinini boqish, ro'zg'or tebratish uchun shunday razil ishni yurganini kampirga so'zlab beradi. Sababi so'ralganda esa, urush tufayli bozordagi inqiroz va kosiblar ishlashi uchun zarur mahsulotlardan butlovchi buyumlar qimmatlashganini aytib o'tadi. Qolaversa, zamon tinch bo'lmagani bois, o'g'ri o'z ishini ustasi bo'lib ketganinini uning so'zlari va xatti-harakatlaridan bilishimiz ham mumkin. Odamlar uyidan tovuq o'g'irlashga kirganda u qo'llaydigan hiylali usullar va nega boylarni emas aynan kambag'allarni o'marib yurishini izohlab berishi yuqoridagi so'zlarni isbotidir aslida. Zero, urushdan oldin o'g'rining yaxshi ota kasbi bor edi, zamon og'irlashgach esa shu yo'lni ilojsizlikdan tanlagan edi. Eng so'ngi qahramon bu muallifning o'zi. Uyiga o'g'ri tushganidan xursand bo'lgan va buni do'stlariga aytib, maqtanishga shoshilgan yetimlar ichidagi yolg'iz o'g'il farzand. Yozuvchi bu tuyg'ularni tasvirlar ekan, bolaligining qanchalar beg'ubor bo'lganini yodga olgani aniq. Roqiyabibi va o'g'rining suhbatidan behosdan uyg'onib ketgan bolakay, uxlamay suhbatni oxirigacha maroq bilan eshitadi.

Darvoqe, XX asrning boshlari haqida gap borganda, Turkiston qanday qilib vahshiylarcha ruslar tomonidan gubernatorlikka aylantirilganligi har bir o'zbek farzandi ko'z o'ngidan birma-bir o'tadi. Birinchi jahon urushining qonli sahnalari ham bundan mustasno emas. O'sha davrlarda tug'ilib, yetimlikda iztirob chekkan G'afur G'ulom hozirgi kun yoshlarini shukr qilib yashashga chaqirmaganmikan aslida. Sababi shundaki, shoir bu hikoyada ko'plab nohaqliklarni qog'ozga o'ralgan shaklda ochib bergan. Pora avj olgani, ijtimoiy ta'minot tizimi hattoki mavjud emasligi, mustamlaka siyosati tufayli yuzlab ko'chadagi bechora yetim bolalar, jamiyatdagi tabaqalanish kabi muammolar bunga misol

bo'la olishi mumkin. "Xudoyo urushi o'zini boshiga yetsin". Roqiyabibi tilidan aytilgan bu so'zlar ham tinchlikning oliy ne'mat ekanini isbotlovchi bir belgidir. Mustaqil va rivojlanayotgan yurtda yashasakda, ko'p hollarda zamondan yoki mavjud tuzumdan ko'p bora noliymiz. Ammo bir bora "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini o'qigach, qanchalik noshukr ekanligimizni anglashimiz ehtimoli yuqori. Issiqqina to'shakda, yaqinlar bag'rida uxlaymiz, ammo ular, asar qahramonlarichi? To'kin-sochin dasturxon ne'matlaridan har kuni bahra olamiz, ammo ular-chi? Harakat qilsak, bajarish uchun yuqori maoshli ishlar bir olam, ammo ularda-chi? Har kuni qozonimizda issiq ovqat qaynab turadi, ammo ularda-chi? Bu asar shunchaki bir hikoya emas, G'afur G'ulom hozirgi tinch zamonning yoshlari uchun namuna qilib bitgan oyna. Hikoyani har o'qiganda, kishi o'zi uchun yangi saboqlar oladi va qalb tubidagi shukronalik hislarini uyg'otish imkoniyatini oshiradi. Zero, bugungi kundagi Yangi O'zbekistonimiz moziydagi sovet mustamlakasi bo'lgan davlatdan tubdan farq qiladi. Unda boy ham, kambag'al ham birdek ko'riladi. Yetimlarni himoya qilish va ularni ta'minlash davlat majburiyati darajasida belgilangan. Ijtimoiy ta'minot borasida ham huquqiy texnologiyalar samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Eng ahamiyatlisi esa, davlatimiz xalq manfaatlaridan va uning farovonligidan kelib chiqqan holda tinchliksevar, tashqi siyosatni amalga oshiradi. Bu esa, o'z navbatida urushlar kelib chiqish ehtimolini pasaytiradi.

Muxtasar qilib aytganda, adibning "Mening o'g'rigina bolam" nomli asari aslida o'zbek badiiy adabiyotining noyob durdonalaridan biridir. U nafaqat satirik, balki tarbiyaviy ahamiyatga molik voqealar bilan ham boyitilgan. Qahramonlarning dunyoqarashlari esa haqiqiy o'zbek millatiga xos. Hikoya kampir va o'g'ri suhbat haqida emas, balki o'quvchining o'z taffakuri bilan tinchlik qadri va shukronalik borasida olib boradigan suhbat haqida.